



GLOBAL MIQYOSDA REPRODUKTIV HUQUQLARNI HIMOYA QILISHDA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH TAMOYILLARI VA AMALIYOT

Shinibayeva Umida Aliyevna

Toshkent davlat yuridik universiteti
Tabiiy resurslar yo'nalishi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15582318>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil
Ma'qullandi: 28-May 2025 yil
Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEY WORDS

reproduktiv inson huquqlari,
reproduktiv huquqlar, reproduktiv
salomatlik, xalqaro konvensiyalar,
xalqaro huquqiy hujjatlar,
konstitutsiyaviy huquq va
erkinliklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada insonning reproduktiv huquqlari kontseptsiyasini shakllantirish va ularning xalqaro miqyosdagi huquqlari va erkinliklari tizimidagi o'рни bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Reproductive huquqlarning huquqiy tabiati aniqlanadi va ular tabiatan murakkab bo'lib, inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda, shuningdek, xalqaro konvensiyalarda mustahkamlangan bir qator shaxsiy huquqlarni o'z ichiga oladi. Qayd etilishicha, reproduktiv huquqlarning xalqaro huquqiy hujjatlarda maxsus vakolatlarni birlashtirgan holda belgilanishi ularni mustaqil huquqlar qatoriga kiritish imkonini beradi va hozirgi vaqtda reproduktiv huquqlarni alohida, mustaqil guruhga ajratish, ularni inson huquqlarining to'rtinchi avlodi sifatida tasniflash uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud deb taxmin qilish imkonini beradi. Maqolada insonning reproduktiv huquqlari bo'yicha turli nuqtai nazarlar tahlil qilinadi. Reproductive salomatlik va reproduktiv huquqlarni himoya qilish zarurati asoslab beriladi. Rivojlangan davlatlardagi kabi boshqa davlatlarda ham yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish uchun huquqiy asoslarini o'rganib uni amalga tatbiq etishning huquqiy jihatlarini o'rganamiz. Bu boradagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni tahlil qilamiz.

Reproduktiv huquqlar – har bir shaxsning o'z sog'ligi, tanasi, farzandlik va oilaviy hayotiga oid qarorlar qabul qilish huquqini ifodalaydi. Bu huquq nafaqat ayollar, balki erkaklar uchun ham muhimdir. Xalqaro huquqda reproduktiv huquqlarni himoya qilish va tartibga solish, umuman olganda, inson huquqlari doirasidagi bir qator asosiy prinsiplarni amalga oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, reproduktiv huquqlarni amalga oshirishda davlatlar o'rtasida kelishilgan tamoyillar va normativ-huquqiy hujjatlar mavjud.

Reproduktiv huquqlarni himoya qilishni tartibga solish xalqaro huquqiy tizimda bir necha asosiy yo'nalishlar va hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), va boshqa xalqaro va lokal tashkilotlarning qabul qilgan konvensiyalar, protokollar, rezolyutsiyalar va tavsiyalari mavjud.

BMT reproduktiv huquqlarni himoya qilishni va tartibga solishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. 1994-yilda Kair shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro aholi tug'ilishini rejalashtirish va rivojlantirish konferensiyasida qabul qilingan "Xalqaro aholini tug'ilishini rejalashtirish va rivojlantirishni amalga oshirish bo'yicha Kair deklaratsiyasi" reproduktiv huquqlarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu deklaratsiya, har bir shaxsning reproduktiv huquqlariga e'tibor berish, uning amalga oshirilishiga to'siqlarsiz imkoniyatlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi va BMT Konvensiyasida bu huquqlarni tan olish va himoya qilishning asosiy printsiplari belgilangan.

BMTning Inson huquqlari komiteti tomonidan ishlab chiqilgan "Reproduktiv huquqlarni himoya qilishga doir qo'llanmalar"da, davlatlar reproduktiv huquqlarni qanday amalga oshirishi kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar mavjud. Bu huquqning amalga oshirilishiga to'siq bo'luvchi barcha shakllarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyaning 16-moddasi nikoh va o'zaro munosabatlarga taalluqli barcha masalalarda ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish majburiyatini belgilaydi va bundan keyin turmush o'rtog'ini erkin tanlash, nikohga kirish huquqini o'z ichiga oladi, deb belgilaydi. Shuningdek, "nikoh davrida va nikoh bekor qilinganda, ota-onalar, ularning oilaviy ahvolidan qat'i nazar, ularning farzandlari bilan bog'liq masalalarda", shuningdek, vasiylik, homiylik, homiylik va bolalarni asrab olishda bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini talab qiladi. Bundan tashqari, ushbu qo'llanmada er va xotin bilan bir xil shaxsiy huquqlarni, shu jumladan familiya tanlash, kasb-hunar egallash huquqi, er va xotinning mulkka egalik qilish huquqi va uni boshqarish, undan foydalanish, tasarruf etishda bir xil huquqlarini kafolatlaydi. Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) reproduktiv huquqlarni himoya qilishga dunyo bo'yicha sog'liqni saqlash siyosatining bir qismi sifatida qaraydi. JSST o'zining bir nechta yillik yarmarkalarida (World Health Assembly) va strategik rejalarda reproduktiv huquqlarni muhim omil sifatida ko'rsatgan. Masalan, JSSTning Reproduktiv salomatlik bo'yicha globallik yo'nalishlari davlatlar uchun tavsiyalar va amaliy choralarni taqdim etadi. JSSTning Reproduktiv sog'liqni saqlashni yaxshilash bo'yicha dasturi bu huquqni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi, chunki u reproduktiv sog'liqni saqlashni kengaytirishni va ayniqsa, qashshoqlikdan aziyat chekayotgan, ta'lim va salomatlikka erishish imkoniyatlari cheklangan aholi uchun zarur bo'lgan xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, ko'pgina joylarda sog'liqni saqlash xizmatlardan foydalanishni kambag'allik darajasi murakkablashtirishi mumkin, ayniqsa onalar salomatligi va xavfsizligini ta'minlash sohasida. Chunki, reproduktiv salomatlikning ta'minlanmaganini qashshoq mamlakatlarda eng yuqori ko'rsatkichda ko'rsak bo'ladi, bunda tibbiy xizmatlar odatda turli joylarda joylashgan yoki jismonan mavjud emas, kadrlar, resurslar va uskunalar bilan yetarlicha ta'minlanmagan va ko'plab kambag'al odamlar uchun juda olisda joylashgan bo'ladi. Ko'p hollarda jamoat salomatligi xizmatlaridagi yaxshilanishlar, nazariyada eng kam daromadga ega bo'lgan va ehtiyojmand aholi guruhlarini qo'shmasdan, katta imkoniyatlar bergan boy

odamlar uchun muvaffaqiyatlar keltiradi.

Reproduktiv salomatlik, ayniqsa onalar salomatligi, dunyoning ko'plab davlatlarida, ayniqsa, kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda befarq qolayotgan masala hisoblanadi. Bunday davlatlarda onalar salomatligi ko'pincha zaif tibbiy xizmatlar, noto'g'ri resurslar va sog'liqni saqlash infratuzilmasining yetishmasligi tufayli jiddiy xavf ostida bo'ladi.

Hozirgi kunda ham ayrim davlatlar aholisining reproduktiv salomatligiga be'tibor qarayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda onalar salomatligi jiddiy tahdidlarga duch kelmoqda. Ushbu davlatlarda tibbiy xizmatlarning sifati va mavjudligi cheklangan, bu esa onalarning homiladorlik paytida yoki tug'ruq vaqtida hayotlarini xavf ostiga qo'yadi. Misol uchun, sayyoramizda Afg'oniston, Somali, Nigeriya kabi davlatlarda onalar o'limining yuqori darajasi kuzatiladi. Bunday joylarda tibbiy xizmatlar faqat cheklangan hududlarda mavjud bo'lib, aksariyat hollarda ular ba'zi bir jamiyatlar yoki qishloqlarda yaroqsiz yoki umuman mavjud emas. Chunki, kam rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi juda zaif, tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanmagan, klinikalar va shifoxonalar zarur uskunalari va malakali tibbiyot xodimlaridan mahrum bo'ladi. Shu sababli, onalar o'z huquqlari va salomatliklari uchun zarur bo'lgan yordamni olish imkoniga ega bo'lmaydi. Onalar o'limining asosiy sababi — bu noto'g'ri va kechikgan tibbiy yordam, tug'ruq jarayonidagi qiyinchiliklar, noto'g'ri yoki yomon sanitariya holati va sust sog'liqni saqlash infratuzilmasi.

JSSSTning 2023-yil 23-fevraldagi statistikasiga muvofiq har ikki daqiqada bir ayol homiladorlik yoki tug'ruq bilan bog'liq muammolar tufayli vafot etishi qayd etilgan. 2020-yilda dunyo bo'ylab 287,000 ayol homiladorlik bilan bog'liq sabablardan vafot etgan. Bu raqamlar 2017-yilda 295,000 ga yetgan edi. Shu bilan birga, 2023-yilda homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq muammolar tufayli 260,000 ayolning vafoti tahmin qilingan. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, ko'plagan davlatlarda tibbiyotning reproduktiv huquqlarni ta'minlash sohasi mustahkamlab qo'yilmagan va huquqlari tartibga solinmagan.

JSSST tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, tug'ruqdan oldin tibbiy yordam olishning past darajasi onalar o'limiga olib keluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, sanitariya sharoitlari va qon quyish kabi xizmatlar ham onalar o'limini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Malakali tibbiyot xodimlari mavjud bo'lgan davlatlarda onalar o'limi darajasi sezilarli darajada pasaygan. Ushbu omillar reproduktiv salomatlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblangani uchun har bir davlat reproduktiv huquqlarni ta'minlashda ushbu jarayonlarni huquqiy tartibga solishdan boshlashi kerak. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar ham reproduktiv salomatlikka ta'sir qiladi. Kam daromadli oilalarda tug'ruqdan oldin va tug'ruqdan keyingi tibbiy yordam olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Shu sababli, onalar o'limining yuqori darajalari kam daromadli va ijtimoiy zaif guruhlarda ko'proq uchraydi.

Xulosa

Reproduktiv salomatlik, ayniqsa onalar salomatligi, ko'plab davlatlarda, xususan, kam rivojlangan mamlakatlarda jiddiy xavf ostida qolmoqda. Buning asosiy sabablari — tibbiy xizmatlarning yetishmasligi, resurslar va malakali xodimlar etishmovchiligi, sanitariya sharoitlari va tibbiy yordamning kechiktirilishi. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar ushbu masalani hal qilish uchun sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, onalar salomatligini yaxshilash va ularga zarur tibbiy yordamni taqdim etish yo'llarida samarali choralar ko'rishlari zarur.

Quyida reproduktiv salomatlik, ayniqsa onalar salomatligi bo'yicha befarq davlatlar va ularning statistik ma'lumotlari keltirilgan: Afg'oniston Osiyodagi eng yuqori onalar o'limi darajasiga ega mamlakat hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har kuni 24 nafar ona va 167 nafar chaqaloq oldini olish mumkin bo'lgan sabablardan vafot etadi. Bu holatning asosiy sabablari orasida tibbiy xizmatlarning yetishmasligi, malakali xodimlarning kamligi va sog'liqni saqlash infratuzilmasining zaifligi mavjud. Somaliya dunyodagi eng xavfli tug'ruq joylaridan biri hisoblanadi. 2020 yilda onalar o'limi darajasi 100,000 tirik tug'ilishga nisbatan 621 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich global o'rtacha darajadan ancha yuqori bo'lib, sog'liqni saqlash tizimidagi muammolar, tibbiy yordamga kechikishlar va zaruriy tibbiy ta'minotning yetishmasligi bilan bog'liq.

Xalqaro huquq reproduktiv huquqlarni himoya qilishning asosiy normativ manbalaridan biri sifatida bir nechta hujjatlar belgilangan. Ularning orasida Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt (1966), Xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt (1966) va Xalqaro mehnat huquqlari konvensiyalari (ILO) o'rin tutadi. Ayniqsa, Xalqaro mehnat huquqlari konvensiyasi reproduktiv huquqlarni himoya qilishda ishchi huquqlarini himoya qilishga katta ahamiyat beradi.

Davlatlar xalqaro huquqiy tizimga a'zo bo'lgan holda, reproduktiv huquqlarni amalga oshirishga mas'uldir. Xalqaro huquqning asosiy printsiplari – erkinlik, tenglik va adolat – reproduktiv huquqlarda ham o'z ifodasini topadi. Har bir davlatning o'z ichki qonunchiligiga muvofiq, reproduktiv huquqlarni himoya qilish, shu jumladan, homiladorlik, oilani rejalashtirish, qonuniy tibbiy abort, jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha xizmatlarni ta'minlash uchun zaruriy mexanizmlar yaratishi va amalda tatbiq etishi zarur.

Shuningdek, davlatlar reproduktiv huquqlarni rivojlantirishda muhim omil bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, reproduktiv salomatlikni yaxshilashga qaratilgan amaliy dasturlarni amalga oshirishga harakat qilishi kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2014 United Nations All worldwide rights reserved
2. <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/NHRIHandbook.pdf>
3. ПЯТЬДЕСЯТ СЕДЬМАЯ СЕССИЯ А57/13 ВСЕМИРНОЙ АССАМБЛЕИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ 15 апреля 2004 г. Пункт 12.10 предварительной повестки дня https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/WHA57/A57_13-ru.pdf
4. ICA - International Council on Archives <https://news.un.org/en/story/2023/02/1133802>
5. World Health Organization <https://www.who.int>
6. Report of the International Conference on Population and Development. Cairo, Egypt, 5-13 September 1994
7. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин: принята резолюцией 34/180 Генер. Ассамблея от 18 декабря 1979 г. //Организация Объединенных Наций //
8. URL://http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml.